CHET ELLIK TIBBIYOT TALABALARIGA O‘ZBEK TILINI SOHAVIY ASOSDA O‘QITISH: USP MODELI VA AMALIY YECHIMLAR

Israilova Zuxra Muxsin qizi

tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi

email: zuhra_uzbek@umail.uz

Abstract. This article explores the challenges and solutions of teaching the Uzbek language to foreign medical students through a professionally oriented approach. The study is based on the English for Specific Purposes (ESP) framework and introduces its adapted model for Uzbek — Uzbek for Specific Purposes (USP). The research employs needs analysis, curriculum review, and classroom observations to identify key issues in the teaching process. The findings indicate several challenges, including limited instructional hours, a lack of discipline-specific teaching materials, and insufficient content focused on real clinical communication. Based on these results, a step-by-step USP-based instructional model is developed to bridge general language learning and professional communication. The proposed model integrates medical context-based materials to enhance students’ communicative competence and practical language use in clinical settings. The study suggests that the USP approach can significantly improve the effectiveness of Uzbek language instruction for foreign medical students and may be widely implemented in higher education institutions.

Key words: *Uzbek language teaching, LSP, ESP, USP model, foreign medical students, needs analysis, medical communication, specialized language instruction*

Аннотация. В статье рассматриваются проблемы и пути их решения при обучении узбекскому языку иностранных студентов-медиков на основе профессионально ориентированного подхода. Исследование опирается на концепцию ESP (английский для специальных целей) и предлагает адаптированную модель — узбекский язык для специальных целей (USP). В ходе исследования использованы методы анализа потребностей, изучения учебных программ и наблюдения за учебным процессом. Результаты выявили такие проблемы, как ограниченное количество учебных часов, недостаток специализированных учебных материалов и дефицит контента, ориентированного на реальную клиническую коммуникацию. На основе полученных данных разработана поэтапная модель обучения USP, обеспечивающая переход от общего языкового обучения к профессиональной коммуникации. Предлагаемый подход способствует развитию коммуникативной компетенции студентов в медицинском контексте и повышает эффективность обучения.

Ключевые слова: *узбекский язык, LSP, ESP, USP модель, иностранные студенты, анализ потребностей, медицинская коммуникация, профессиональное обучение языку*

Annotatsiya. Maqolada chet ellik tibbiyot talabalariga o‘zbek tilini sohaviy yo‘naltirilgan holda o‘qitish muammolari va yechimlari tahlil qilinadi. Tadqiqot LSP (Language for specific purposes – maxsus maqsadlar uchun til o‘qitish) yondashuviga asoslanib, uning o‘zbek tiliga moslashtirilgan varianti — USP (Uzbek for Specific Purposes – Sohaviy o‘zbek tili) modelini taklif etadi. Tadqiqot jarayonida ehtiyojlar tahlili, o‘quv dasturlari va amaliy kuzatuvlar qo‘llanildi. Natijalar dars soatlarining cheklanganligi, sohaviy o‘quv materiallarining yetishmasligi hamda klinik kommunikatsiyaga yo‘naltirilgan kontentning kamligini ko‘rsatdi. Shu asosda umumiy til kompetensiyasidan kasbiy kommunikatsiyaga o‘tishni ta’minlovchi bosqichma-bosqich USP modeli ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv tibbiy kontekstga asoslangan materiallar orqali talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, LSP, ESP, USP modeli, chet ellik talabalar, ehtiyojlar tahlili, tibbiy kommunikatsiya, sohaviy til o‘qitish

Bugungi kunda O‘zbekistonda tahsil olayotgan chet ellik talabalar soni ortib bormoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ularning umumiy soni qariyb 23 mingga yetgan.[1] Shuningdek, xorijiy talabalarning katta qismi tibbiyot yo‘nalishida bo‘lib, birgina Toshkent tibbiyot universitetidagi chet ellik talabalar soni 11 ming nafardan oshgani qayd etiladi. Bu ko‘rsatkich tibbiyot ta’limida chet ellik talabalar ulushining juda yuqori ekanini ifodalaydi. Mazkur holat xorijlik talabalarga o‘zbek tilini o‘qitish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Chunki ushbu yo‘nalishda o‘qiyotgan chet ellik talabalarga o‘zbek tilini o‘qitish nafaqat umumiy muloqot, balki kasbiy faoliyatni samarali olib borishlari uchun ham muhim hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud o‘quv tizimida o‘zbek tili ko‘pincha umumiy til sifatida o‘qitilib, talabalarning kasbiy ehtiyojlari yetarli darajada hisobga olinmaydi. Shu bois maxsus maqsadlar uchun til o‘qitish yondashuvlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Maxsus maqsadlar uchun til o‘qitish (LSP – Language for Specific Purposes) xorijiy tilni o‘qitishda o‘quvchilarning kasbiy, akademik va kommunikativ ehtiyojlariga asoslangan yondashuv hisoblanadi. LSP metodologiyasining asosiy tamoyili o‘quv mazmunini aniq belgilangan kasbiy kontekst va o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirishdan iborat bo‘lib, bunda til materiali umumiy emas, balki muayyan soha doirasida tanlanadi. Ushbu sohalar tarkibiga tibbiyot, muhandislik, biznes va boshqa kasbiy yo‘nalishlar kiradi.

LSP yondashuvida o‘quv jarayoni markazida o‘quvchining real ehtiyojlari turadi. Hutchinson va Waters LSPni ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq qilib ESP modelini ishlab chiqqan. Bu olimlar ESPni “o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv” sifatida ta’riflab, til o‘qitish jarayonida barcha materiallar va metodlar o‘quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mos ravishda ishlab chiqilishi zarurligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, til o‘qitish jarayoni “what the learner needs to do with language” tamoyiliga asoslanishi lozim.[2]

Shuningdek, Tony Dudley-Evans ESPni mustaqil yondashuv sifatida ko‘rib, uning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida muayyan kasbiy yoki akademik kontekstga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, ESPda til faqat lingvistik tizim sifatida emas, balki real kasbiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan kommunikativ vosita sifatida o‘rganiladi.[3] Shu asosda ESP yondashuvi til o‘qitishda mazmunni standartlashtirilgan grammatika va leksikadan ko‘ra, autentik kasbiy vaziyatlarga yo‘naltirishni talab qiladi. Bu esa ayniqsa tibbiyot kabi yuqori kommunikativ aniqlik talab etiladigan sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi asosida ishlab chiqiladigan maxsus maqsadlar uchun o‘zbek tili ta’lim modeli bir qator asosiy tamoyillarga tayanadi. Jumladan, o‘quv jarayonini ehtiyojlar tahliliga asoslash, umumiy til kompetensiyasidan kasbiy til kompetensiyasiga bosqichma-bosqich o‘tish, kommunikativ yondashuvni ustuvor qo‘llash hamda real kasbiy va hayotiy vaziyatlarga asoslangan autentik materiallardan foydalanish ushbu modelning asosiy metodologik yo‘nalishlarini tashkil etadi.

ESP yondashuvida til o‘qitish odatda umumiy lingvistik kompetensiyadan boshlanib, keyinchalik maxsus kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bu jarayon xalqaro CEFR tizimiga muvofiq ravishda A1 darajadan boshlab, A2 bosqichidan keyin kasbiy terminologiya va kommunikativ vaziyatlarga o‘tishni nazarda tutadi. Talabaning mustaqil kasbiy kommunikatsiya darajasiga (kamida B2) yetishi ESPning yakuniy maqsadi sifatida belgilanadi. Bu jarayon xalqaro CEFR (Common European Framework of Reference for

[1] https://studyin-uzbekistan.uz/

[2] Hutchinson, Tom, and Alan Waters. *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press, 1987.

[3] Tony Dudley-Evans and Maggie Jo St John, *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach* (Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

Languages) tizimiga asoslanib, til o‘rganish jarayonini aniq darajalarga (A1–C2) ajratadi va har bir bosqichda kommunikativ kompetensiyaning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta’minlaydi.[1]

Biroq, amaliy tajriba ESP yondashuvining o‘zi ham ayrim cheklovlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Xususan, ESP asosan ingliz tili kontekstida shakllangan bo‘lib, u boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga to‘liq ko‘chirilganda bir qator tizimli muammolar yuzaga keladi. Hutchinson va Waters ESPni o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida talqin qilsa-da, ular ham bu yondashuvning samaradorligi o‘quv resurslari va autentik materiallar mavjudligiga bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Basturkman ESPni kasbiy ehtiyojlarga asoslangan til o‘qitish modeli sifatida izohlaydi va uning samaradorligi real kommunikativ vaziyatlar hamda sohaga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari orqali ta’minlanganda yuqori bo‘lishini qayd etadi.[2]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda, xususan tibbiyot yo‘nalishida ESP modelini to‘liq amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bir qator shart-sharoitlar yetarli darajada shakllanmagan. Jumladan:

- o‘quv soatlarining cheklanganligi (odatda 1–2 semestr);
- o‘quv dasturlarining umumiy grammatik mavzularga yo‘naltirilganligi;
- sohaviy (tibbiy) darslik va metodik resurslarning yetishmasligi;
- raqamli ta’lim resurslarining yetarli emasligi;
- klinik kommunikatsiyaga yo‘naltirilgan autentik materiallarning kamligi.

Natijada, ESP yondashuvi asosida o‘qitilgan talabalar nazariy til bilimlariga ega bo‘lsa-da, real klinik vaziyatlarda samarali kommunikatsiyani amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu muammo faqat nazariy emas, balki real ta’lim amaliyotida ham kuzatiladi. Fanlararo integratsiya, xususan tilshunoslik va tibbiyot kesishmasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, klinik kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun til o‘qitish jarayoni autentik tibbiy kontekstlar bilan bog‘lanishi zarur.[3] Shu sababli, ESP yondashuvini to‘liq ko‘chirish emas, balki uni lokal sharoitga moslashtirish zarurati yuzaga keladi. Aynan shu ehtiyoj asosida ushbu tadqiqotda Sohaviy o‘zbek tili (USP – Uzbek for Specific Purposes) modeli taklif etiladi.

Taklif etilayotgan USP modeli doirasida o‘quv jarayoni bosqichma-bosqich va integrativ yondashuv asosida tashkil etiladi. Boshlang‘ich bosqichda (A1–A2) umumiy til mavzulari sohaviy (tibbiy) kontekst bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘rgatiladi. Bunda til birliklari alohida grammatik kategoriya sifatida emas, balki kasbiy nutq vaziyatlari orqali beriladi. Klinik kommunikativ ko‘nikmalarni chet tilida samarali shakllantirish til o‘qitishni autentik tibbiy amaliyot kontekstlari bilan integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi.[4] Bunday yondashuvda til o‘rganish jarayoni real klinik vaziyatlarga asoslanadi va bu talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, hozirgi davomli zamon grammatik mavzusi “Mening boshim og‘riyapti” kabi tibbiy kontekstda qo‘llanilib, real klinik muloqot asosida mustahkamlanadi. Shuningdek, joylashuv (lokatsiya) leksikasi shifoxona muhiti bilan bog‘liq holda o‘rgatiladi: “kardiolog xonasi ikkinchi qavatda”, “pediatr xonasi chap tomonda” kabi real vaziyatli ifodalar orqali til materiali taqdim etiladi.

---

[1] Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.

[22] Basturkmen, H. (2010). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. Palgrave Macmillan.

[3] Adilova, S. A. (2021). *Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQShdagi ayrim universitetlar misolida)*. Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Buxoro, 10-noyabr 2021.

[4] Fogarasi, K., & Császár, J. (2023). *How to teach clinical communication skills in a foreign language from scratch*. Times Higher Education (THE Campus).

Modal fe’llar esa shifokor–bemor dialoglari asosida shakllantiriladi: “Siz dori qabul qilishingiz kerak”, “Sizga muzdek suv ichish mumkin emas” kabi kommunikativ vaziyatlar orqali kasbiy nutq koʻnikmalari rivojlantiriladi.

USP modelining muhim jihatlaridan biri — spiral learning yondashuvining qoʻllanishidir. Unga koʻra, bir grammatik yoki leksik mavzu dastlab sodda shaklda berilib, keyingi bosqichlarda murakkabroq kasbiy kontekstlarda qayta ishlanadi va mustahkamlanadi. Bu yondashuv til materialining passiv bilimdan aktiv kommunikativ kompetensiyaga oʻtishini ta’minlaydi hamda uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanishiga xizmat qiladi.[1] Natijada USP modeli til oʻqitishda umumiydan maxsusga oʻtish, kontekstual oʻqitish va takroriy mustahkamlash tamoyillarini birlashtirgan integrativ metodik tizim sifatida shakllanadi.

USP modeli doirasida til oʻqitish jarayonida mavzularni tanlash va ularni taqdim etish bosqichma-bosqich, ya’ni osondan murakkabga tomon rivojlanib boradi. Bunda dastlab inson tanasi a’zolari, keyinchalik esa vitamin va minerallarning organizmga ta’siri kabi tibbiy mavzular til va soha integratsiyasi asosida oʻrgatiladi. Ushbu yondashuv til materialini kasbiy kontekst bilan uygʻunlashtirish orqali oʻquvchilarning leksik va kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, USP modeli faqat tibbiy mavzular doirasida cheklanib qolishni nazarda tutmaydi. Til oʻqitish jarayonida mavzudan tashqari kommunikativ topshiriqlar, atrof-muhitda sodir boʻlayotgan hodisalar haqida fikr bildirish, shaxsiy va ijtimoiy mavzularda muloqot qilish kabi faoliyat turlari ham muhim oʻrin tutadi. Buning sababi shundaki, tibbiyot yoʻnalishida tahsil olayotgan xorijiy talabalar nafaqat kasbiy kommunikatsiyaga, balki jamiyatga toʻliq integratsiyalashuvga ham tayyorlanishi lozim. Shu bois USP modeli ikki asosiy yoʻnalishni uygʻunlashtiradi: “tibbiy til” va “ijtimoiy til” kompetensiyasi. Natijada talabalar bir tomondan klinik va kasbiy muhitda samarali muloqot qila olsalar, ikkinchi tomondan kundalik hayotiy vaziyatlarda ham erkin kommunikatsiya yurita olish kompetensiyasini egallaydilar. Bu esa USP modelining integrativ va funksional xarakterini yanada kuchaytiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, chet ellik tibbiyot talabalariga oʻzbek tilini oʻqitish jarayonida mavjud ESP yondashuvi muhim metodologik asos boʻlsa-da, uning toʻliq holda mahalliy ta’lim sharoitiga moslashmaganligi bir qator amaliy cheklovlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, klinik kommunikatsiya, autentik tibbiy vaziyatlar va kasbiy nutq kompetensiyasini shakllantirishda ESPning an’anaviy modeli yetarli darajada samarali natija bermasligi kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan, USP modeli asosida ishlab chiqilgan yondashuvni amaliyotga joriy etish uchun oʻquv jarayonini takomillashtirish, dars soatlarini optimallashtirish hamda autentik materiallar va raqamli resurslarning miqdori va sifatini yanada oshirish zarur.

Mazkur tadqiqotda taklif etilgan Sohaviy oʻzbek tili (USP – Uzbek for Specific Purposes) modeli ESP yondashuvining mahalliy sharoitga moslashtirilgan, integrativ va bosqichma-bosqich rivojlanuvchi varianti sifatida ilmiy asoslab berildi. USP modeli umumiy til kompetensiyasidan kasbiy kommunikatsiyaga oʻtish, tilni real klinik vaziyatlarda qoʻllash hamda spiral learning tamoyiliga asoslangan takroriy mustahkamlash mexanizmini birlashtirgan holda til oʻqitish jarayonini tizimlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, USP modeli nafaqat til bilimlarini shakllantirishga, balki talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu model tibbiyot yoʻnalishida tahsil olayotgan xorijiy talabalarni nafaqat klinik muhitga, balki keng ijtimoiy kommunikatsiya muhitiga ham muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Demak, USP modeli oʻzbek tilini chet ellik tibbiyot talabalariga oʻqitishda nazariy va amaliy jihatdan asoslangan muqobil yondashuv boʻlib, uni oliy ta’lim tizimida keng joriy etish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

[1]https://www.researchgate.net/publication/271638280_Spiral_learning_teaching_method_Stair_stepped_to_promote_learning

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Adilova, S. A. (2021). Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQShdagi ayrim universitetlar misolida). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.5685022

2 Basturkmen, H. (2010). Developing Courses in English for Specific Purposes. Palgrave Macmillan.

3 CEFR – Common European Framework of Reference for Languages. (2001). Cambridge University Press.

4 Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press.

5 Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learning-centred approach. Cambridge University Press.

6 Palutina, I. (2013). Klinik va tibbiy lingvistika masalalari.